

**BUYUK MUHADDIS OLIM IMOM AL-BUXORIYNING PEDAGOGIK G'UYALARI
HADISLAR TALQINIDA**

Tojiboyeva Muqaddasxon Raxmatjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hadislar va ularning mohiyati batafsil yoritib berilgan. Hadis ilmiga o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk muhaddis olim Imom al-Buxoriyning nurli hayot yo'li va ilmiy faoliyati yoritib berilgan. Imom al-Buxoriyning pedagogik qarashlari hadislar talqinida go'zal tarzda keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *hadis, sunnat, muhaddis, masjid, Qur'oni Karim, ilm, ta'lim-tarbiya, odob-axloq, "Al-jome' as-sahih".*

Movarounnahrni arablar bosib olganidan keyin u yerda ham arab davlatlari kabi masjidlar barpo etilgan. Masjidlar huzurida esa maktablar ochilgan. Bu maktablarda o'g'il bolalarga Qur'oni Karimni o'qishni o'rgatishga farmon berilgan. Masjid imomi bolalarni o'qitgan. Maktablarda arab tili muhim fan sifatida o'qitilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston hududida ham VIII-IX asrlardan boshlab maktab va madrasalar barpo etila boshlagan. Bu yerda boriladigan ta'lim-tarbiya manbayi Qur'oni Karim asoslari, hadislar va ulamolarning kitoblari hisoblangan. Ta'lim-tarbiyada haqiqiy insoniy hislatlar targ'ib qilingan. Farzandlarni halol, pok, mehnatsevar, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalashga e'tibor berilgan. Shu bilan birga dunyoviy bilimlar, hisob, adabiyot, tarix, geografiyaga oid bilimlar ham o'rgatilgan.

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning gaplari, ishlari, ma'qullashlari, xulqiy sifatleri sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar hadis deb yuritiladi. Hadislar Qur'oni Karimdagi oyatlarni tushuntiradi, sharoitga tadbiiq etadi. Hadislarda islom dinining qonun-qoidalari bilan birgalikda insoniy fazilatlar ham keng tashviiq qilinadi, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan yomon sifatlar qoralanadi. Shunga ko'ra ular o'z ahamiyati jihatidan Qur'oni Karimdan keyingi eng muhim manbadir. Hadislarda ta'lim-tarbiya, odob-axloq haqidagi fikrlar juda ko'plab uchraydi.

Hadis ilmining rivojlanishiga yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar ulkan hissa qo'shishgan. Muhaddis- " hadis biluvchi", "hadis aytuvchi" degan ma'noalarni anglatadi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abu ar-Rahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy o'z umrlarini hadis to'plash va ularni o'rganishdek muqaddas ishga bag'ishlaganlar. Imom al-Buxoriy barcha muhaddislarning eng oldingi qatorida turgan, hammalari tomonidan tan olingan ustozdir.

Buyuk muhaddis olim Imom al-Buxoriy o'zidan bebaho ilmiy meros yaratib qoldirgan. Yurtboshimiz faxr bilan tilga olgan buyuk olim Imom al-Buxoriy islom

dunyodagi eng nufuzli deb tan olingan 6 ta ishonchli hadislar to'plamining mualliflaridan biri, aniqrog'i, boshqa muhaddislar ustozlari hamda imomidir. Manbalarda ko'rsatilishicha, Imom al-Buxoriy 16 yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli roviylardan eshitgan hadislarini, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilgan va yod olgan.

Imom al-Buxoriy 20 dan ortiq durdona asarlar yozib qoldirgan. Xususan, "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad", "At-tarix as-sag'ir", "At-tarix al-avsot", "At-ta'rix al-kabir", "Kitob al-ilal", "Barr ul-volidayn", "Asomi us-sahoba" va "Kitob al-kuna" singari durdona asarlari orqali hadis ilmiga bebaho hissa qo'shgan. "Al-jome' as-sahih" asariga kiritilgan hadislarining mavzu qamrovi hayot muammolari, turmush masalalari qadar keng va turfadir. Ushbu asarning birinchi kitobida dastlabki bob "iymon" haqida bo'lsa, keyingi bob "ilm" haqida bo'lgan. Bu dinimizda iymondan keyingi mavqe' ilmga tegishi ekanligiga ishora qiladi. Xususan, "Ilmning fazilatlarini to'g'risida" gi hadisda quyidagilar ifodalangan:

"Alloh Taolo oyati karimasida: "Alloh Taolo sizlarning orangizdagi iymon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug' qilg'aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Alloh Taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir", - deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa "Yo Robbiy, ilmimni ziyoda qilg'aysen, deb ayt!", - deyilgan.

Ushbu hadisdan dunyo va oxirat omonligi, farovonligi ilm bilan bo'lishi, Yaratgandan eng avvalo ilm so'rash lozimligi ko'rinadi. Ilm olish osonlik bilan kechmaydi. Ilm olishning o'ziga xos mashaqqati, turli murakkabliklari bo'lishi tabiiy. Ilm tolibi buni oldindan bilgan, ularni bo'yniga olgan holda bilim olishga kirishmog'i lozim. Ana shuni nazarda tutib boshqa bir hadisda: "Ilmni Chinga borib bo'lsa ham olinglar"- deyilgan. Hadisdagi Chin faqat Xitoy yurtinigina bildirmaydi, ayni paytda u ramziy ma'noda masofa jihatdan uzoqlik, ham vaqt jihatdan uzoqlik-davomiylik va bu jarayonlardagi qiyinchilik, mashaqqatlarni ifodalaydi. Bundan ko'rinadiki, qayerda, qachon va qay muddatda bo'lishidan qat'iy nazar, zahmatlar chekib bo'lsa ham ilm o'rganishga astoydil bel bog'lash lozim. Shuningdek, hadislarda ota-onani e'zozlash, qarindoshlarga, qo'ni-qo'shnilarga yaxshilik qilish, umuman, jamiyatga manfaat yetkazish, ta'lim-tarbiya, o'dob-axloq kabi mavzular yoritilgan. Xususan, "Ilm o'rganmoq va ilm o'rgatmoqning fazilati to'g'risida" quyidagi hadis keltirilgan:

"Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: "Alloh Taolo menga yuborgan hidoyat (Alloh Taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) singari ilm ham ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi. Ba'zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan, o'ziga to'playdi, undan Alloh Taolo bandalarini foydalandiradi. Odamlar suvdan ichadi, hayvonlarini va o'simliklarini sug'oradi. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydi, ko'katni ham ko'kaytirmaydi. Bularni

quyidagicha muqoyasa qilish mumkin: bir kishi Alloh ilmi (islom) ni teran o'rganadi, teran tushunadi va undan manfaatlanadi va Alloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, odamlarga o'rgatadi. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadi. Ammo o'zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchi kofirdir”.

Imom al-Buxoriyning ta'lim-tarbiya xususidagi ta'limotida axloqiy qarashlar muhim o'rin tutadi. Uning uqtirishicha, baland tovush bilan o'rinsiz ko'p kulish boshqalar diliga ozor beruvchi xislat. Bu fikr quyidagi rivoyatda o'z aksini topadi:

“ Abu Hurayra (r.a) aytadilar: “ Rasullulloh: “ Tovush chiqarib kulishni kam qil, chunki ko'p kulish dilni halok (vayron) qiladi”,- deydilar “.

Imom Buxoriy xalqqa yoqimli, doimo ehtiroimli, uning muhabbatiga sazovor bo'lishni go'zal axloqlilik deb biladi. Bu haqida olim shunday rivoyat qiladi:

“ Muhammad ibn Abdulloh ibn Amr ibn al-Os (r.a) Rasullullohdan eshitdilar. Rasullulloh (s.a.v): “ Qiyomat kuni menga eng yaqin bo'luvchilaringiz kimligini aytib beraymi? “,-deb so'rganlarida, sahobalar jim turishdi. Rasullulloh bu savollarni ikki yoki uch marotaba qaytarganlaridan keyin, ular: “ E Rasullulloh! Aytib bering!”,-deyishdi. Rasullulloh:” Ular axloqda (xalqqa yoqimliroq bo'lganlaringizdir”, - dedilar “.

Imom Buxoriy bolaning solih, qobil bo'lishlari Alloh Taoloning tavfiqi bilan bo'lishini, ammo ularga odob-axloq o'rgatish otalarning vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. A'robiylar: “ E Rasullulloh! Insonlarga berilgan fazilatlarining eng yaxshisi nima?”, -deb so'rashadi. Rasullulloh insonlarga berilgan fazilatlarining eng yaxshisi yaxshi axloqdir “,-deydilar. Chindan ham, odob-axloq insonlarga berilgan fazilatlarining eng a'losidir.

Xulosa qilib aytganda, Imom Buxoriyning pedagogik qarashlari hadislarda go'zal tarzda yoritib berilgan. Ushbu fikrlarda ta'lim-tarbiyaga, ilmga hamda odob-axloq masalalariga alohida e'tibor berilgan. Buxoriyning pedagogik qarashlarida ilm ulug'langan. Ilmning ulug'ligi “ Kimki ilm olgan bo'lsa, payg'ambar alayhissalomdan meros olibdir“ degan hadisda o'z aksini topgan. Shuningdek, ilm o'rganmoqlik “ Ilm-u hikmatni orzu qilmoq” nomli hadisda go'zal tarzda ifodalangan:

“ Hazrat Umar (r.a.) bunday degan: “ Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasullulloh (s.a.v.) ning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar. Rasullulloh (s.a.v.): “ Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz emas: biri- kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni Haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi kishiga Alloh Taolo ilm-u hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliymaqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa”,-deganlar”.

Chindan ham, ilm-u hikmatga ega inson ilmi tufayli oliymaqomga erishadi, ya'ni ilm insonni yuksaltiradi. Zero, ilm biz uchun eng bebaho ne'matlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy. “ Al-adab al-mufrad”. Toshkent-1990.
2. Ahmedov S, Qosimov B, Qo'chqorov R, Rizayev Sh. “ Adabiyot “ (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). Toshkent-2020.
3. Yo'ldoshev Q, Qodirov V, Yo'ldoshibekov J. “ Adabiyot “ (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). Toshkent- 2019.
4. Ochildiyeva, N. Q. (2022). IMOM AL-BUXORIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI. Scientific progress, 3(4), 317-320.
5. Orifbekovna, S. L., & Mirzayevna, A. N. (2022). IMOM BUXORIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(22), 181-184.
6. Tojiboyev, J. U. O. G. L. (2022). TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 3(1), 585-594.
7. Umidjon o'gli, T. J. (2022, November). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 42-44).
8. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(12), 60-64.
9. Umidjon o'gli, T. J. (2023). TALIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KOMPONENTLAR VA VOSITALARNING AHAMIYATI. Scientific Impulse, 1(9), 1077-1080.
10. Umidjon o'gli, T. J. (2022). BOLAJAK TASVIRIY SANAT OQITUVCHILARINING ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 473-475
11. Tojiboyeva, M. (2023). ILMIY-PEDAGOGIK TADVIQOT METODLARINING PEDAGOGIKA SOHASIDA TUTGAN O'RNI. Наука и инновация, 1(6), 24-26.
12. Muqaddasxon, T. (2023). O'ZBEKISTONDA ILM-FAN RIVOJLANISHI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 223-225..